

## DELIBERATIV DEMOKRATIYA: MAZMUNI, TAMOYILLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Rahmonov Sherzod Tolibovich**

*Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi kotibiyat mudiri  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158987>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada deliberativ demokratiyaning nazariy-metodologik asoslari, uning mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari hamda zamonaviy demokratik boshqaruv tizimida amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Deliberativ demokratiya fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan demokratiya shakli sifatida ko'rib chiqilib, unda erkin muloqot, oqilona bahs-munozara, o'zaro hurmat va umumiy manfaatlariga asoslangan kelishuvga erishish muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan. Maqolada deliberativ demokratiyaning an'anaviy vakillik demokratiyasidan farqli jihatlari ochib berilgan hamda uning institutsional shakllari, jumladan, jamoatchilik muhokamalari, fuqarolar yig'inlari, ishtirokchi byudjetlashtirish, maslahat kengashlari va raqamli platformalar orqali joriy etish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari faolligini oshirish va aholi hamda davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashda deliberativ demokratiya mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatlarda ishtirokchi boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, ijtimoiy konsensusga erishish va demokratik islohotlar samaradorligini oshirishda deliberativ yondashuvlarni keng tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** deliberativ demokratiya, fuqarolik ishtiroki, jamoatchilik muhokamasi, kommunikativ muloqot, ijtimoiy konsensus, ishtirokchi boshqaruv, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati, ochiq boshqaruv, hisobdorlik, raqamli ishtirok, davlat va jamiyat hamkorligi.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы делиберативной демократии, её сущность, основные принципы и механизмы реализации в современной системе демократического управления. Делиберативная демократия рассматривается как форма демократии, направленная на обеспечение активного участия граждан в процессе принятия политических решений, при которой особое значение имеют свободный диалог, рациональное обсуждение, взаимное уважение и достижение консенсуса, основанного на общих интересах. В статье раскрываются отличительные особенности делиберативной демократии по сравнению с традиционной представительной демократией, а также рассматриваются её институциональные формы, включая общественные обсуждения, собрания граждан, инициативное (партиципаторное) бюджетирование, консультативные советы и цифровые платформы участия. Кроме того, освещается значение механизмов делиберативной демократии в обеспечении открытости и подотчётности государственного управления,

повышении активности институтов гражданского общества и укреплении доверия между государством и обществом. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости более широкого внедрения делиберативных подходов для развития культуры партисипаторного управления, достижения общественного консенсуса и повышения эффективности демократических реформ в современных обществах.

**Ключевые слова:** делиберативная демократия, участие граждан, общественное обсуждение, коммуникативный диалог, общественный консенсус, партисипаторное управление, демократические институты, гражданское общество, открытое государственное управление, подотчётность, цифровое участие, сотрудничество государства и общества.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of deliberative democracy, its essence, fundamental principles, and mechanisms for implementation within the contemporary system of democratic governance. Deliberative democracy is examined as a form of democracy aimed at ensuring the active participation of citizens in political decision-making processes, emphasizing the importance of free dialogue, rational deliberation, mutual respect, and consensus based on the common good. The article identifies the distinctive features of deliberative democracy in comparison with traditional representative democracy and explores its institutional forms, including public consultations, citizens’ assemblies, participatory budgeting, advisory councils, and digital participation platforms. Furthermore, it highlights the significance of deliberative democracy mechanisms in promoting transparency and accountability in public administration, strengthening the role of civil society institutions, and fostering trust between the state and society. The findings demonstrate the necessity of broader implementation of deliberative approaches to promote a culture of participatory governance, achieve social consensus, and enhance the effectiveness of democratic reforms in contemporary societies.

**Keywords:** deliberative democracy, citizen participation, public consultation, communicative dialogue, social consensus, participatory governance, democratic institutions, civil society, open government, accountability, digital participation, state–society cooperation.

**Kirish:** Deliberativ demokratiya tushunchasi siyosiy-falsafiy fikr taraqqiyotida demokratik boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichini ifodalaydigan konsepsiya sifatida shakllangan. Ushbu yondashuv an’anaviy vakillik demokratiyasidan farqli ravishda, qaror qabul qilish jarayonida fuqarolarning faqat ovoz berish orqali emas, balki munozara, muhokama va ratsional mulohazalar asosida ishtirok etishini nazarda tutadi. Deliberatsiya tushunchasi latinchа “deliberare” – “muxokama qilish”, “o’ylab qaror qabul qilish” ma’nosini anglatib, siyosiy jarayonlarda ochiqlik, fikrlar xilma-xilligi va asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Deliberativ demokratiya nazariyasiga ko’ra, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qarorlar faqat ko’pchilik irodasiga tayanish bilan cheklanmasligi, balki turli manfaatlar va qarashlarning erkin muhokamasi orqali shakllanishi lozim. Bu jarayonda fuqarolar teng huquqli ishtirokchilar sifatida qaraladi, ularning fikrlari esa ratsional asoslangan va boshqalar uchun tushunarli

bo'lishi talab etiladi. Shu jihatdan, deliberativ demokratiya faqat institutsional tizim emas, balki kommunikatsiya madaniyati va fuqarolik ongining yuqori darajasini ham talab qiladi.

Deliberativ demokratiya fuqarolarning davlat va jamiyat hayotiga oid qarorlarni qabul qilish jarayonida erkin, asoslangan va o'zaro hurmatga asoslangan muhokamalar orqali ishtirok etishini nazarda tutuvchi demokratiya shaklidir. Oddiy qilib aytganda, deliberativ demokratiyada qarorlar faqat ovoz berish orqali emas, balki mulohaza yuritish, bahs-munozara qilish, dalillarni taqqoslash va umumiy kelishuvga erishish jarayoni orqali qabul qilinadi.

Deliberativ demokratiyaning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- Erkin va teng ishtirok, bunda birinchi, har bir fuqaro o'z fikrini erkin bildirish huquqiga ega bo'lishi lozim. Ikkinchi, muhokamalarda ishtirokchilarning maqomi, boyligi yoki siyosiy ta'siri ustunlik bermasligi kerak.

- Asoslangan fikr bildirish, qarorlar shaxsiy manfaat yoki hissiyotlarga emas, balki dalillar, mantiqiy fikrlash va jamoat manfaatiga asoslanishi lozim.

- O'zaro hurmat va muloqot madaniyati, ishtirokchilar bir-birining nuqtai nazarini eshitishga va tushunishga intilishlari zarur.

- Konsensusga intilish, maqsad ko'pchilikning irodasini oddiy hisoblash emas, balki imkoni boricha umumiy kelishuvga erishishdir.

Deliberativ demokratiya g'oyasining shakllanishida Yurgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasi orqali ratsional jamoat muloqotining ahamiyatini asoslab bergan. Jon Rals adolat va oqilona jamoat muhokamalari konsepsiyalarini rivojlantirgan. Joshua Kohen deliberativ demokratiyaning institutsional modellarini ishlab chiqqan.

#### An'anaviy demokratiyadan farqi:

| An'anaviy vakillik demokratiyasi            | Deliberativ demokratiya                                             |
|---------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Asosiy mexanizm – saylov                    | Asosiy mexanizm – muhokama                                          |
| Ko'pchilik ovozi hal qiluvchi               | Asoslangan kelishuv muhim                                           |
| Fuqarolar asosan saylovlarda ishtirok etadi | Fuqarolar qaror qabul qilishning turli bosqichlarida ishtirok etadi |
| Siyosiy raqobat ustun                       |                                                                     |

Deliberativ demokratiyaning amaliyotdagi ko'rinishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- jamoatchilik eshituvlari;
- fuqarolar yig'inlari va maslahat kengashlari;
- ishtirokchi byudjetlashtirish;
- onlayn jamoatchilik muhokamalari;
- fuqarolar assambleyalari.

Deliberativ demokratiya demokratiyaning shunday modeliki, unda qarorlarning legitimligi faqat ko'pchilikning ovozi bilan emas, balki fuqarolarning ochiq, asoslangan va o'zaro hurmatga tayangan muhokamalarda ishtirok etishi bilan ta'minlanadi. Bu yondashuv zamonaviy jamiyatlarda davlat boshqaruvining shaffofligini oshirish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yondashuvning nazariy asoslari bir qator g‘arb faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, kommunikativ amal nazariyasida jamoatchilik muhokamalari orqali “ratsional konsensus”ga erishish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu yerda konsensus majburiy rozilik emas, balki argumentlar asosida shakllangan umumiy qaror sifatida tushuniladi. Deliberativ jarayonda ishtirokchilar o‘z pozitsiyalarini himoya qilish bilan birga, boshqalarning fikrlarini ham tinglash va ularni inobatga olishga tayyor bo‘lishi kerak. Mahalliy vakillik hokimiyatini transformatsiya qilish jarayonida deliberativ demokratiyaning ahamiyati ayniqsa yuqori. Chunki mahalliy darajada qabul qilinadigan qarorlar aholining kundalik hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, qaror qabul qilishda fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning fikr va takliflarini inobatga olish boshqaruv samaradorligini oshiradi. Deliberativ mexanizmlar mahalliy darajada ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy vakillik organlari faoliyatida deliberativ yondashuvni joriy etish bir qator institutsional va madaniy o‘zgarishlarni talab qiladi. Avvalo, jamoatchilik muhokamalari uchun qulay platformalar yaratilishi zarur. Bu an’anaviy yig‘ilishlar, jamoatchilik kengashlari, ochiq eshiklar kunlari shaklida bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali onlayn muhokamalar, elektron petitsiyalar va platformalarni joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, bir qator mamlakatlarda mahalliy byudjetni shakllantirish jarayonida “ishtirokchi byudjetlashtirish” amaliyoti keng qo‘llanilmoqda. Unda aholi vakillari mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita ishtirok etadi, loyihalarni taklif qiladi va ularni muhokama qiladi. Bunday amaliyot fuqarolarning davlat boshqaruviga ishonchini oshirish bilan birga, resurslarni samarali taqsimlashga ham xizmat qiladi.

Deliberativ demokratiyaning yana bir muhim jihati – bu axborotning ochiqqligi va shaffofligidir. Fuqarolar qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi uchun ular yetarli va ishonchli axborotga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli, mahalliy hokimiyat organlari o‘z faoliyati haqida muntazam ravishda axborot berib borishi, qarorlar loyihalarini oldindan e’lon qilishi va jamoatchilik fikrini o‘rganishi zarur.

Shu bilan birga, deliberativ jarayonlarda ishtirok etish fuqarolardan ma’lum bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Muhokama madaniyati, tanqidiy fikrlash, argumentatsiya qilish qobiliyati kabi kompetensiyalar muhim ahamiyatga ega. Demak, deliberativ demokratiyani amalga oshirish ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Mahalliy vakillik hokimiyatini transformatsiya qilishda deliberativ yondashuvni joriy etishning yana bir yo‘nalishi – bu fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirishdir. Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik tashabbus guruhlar va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va uni davlat organlariga yetkazishda muhim vositachi vazifasini bajaradi. Ularning faol ishtiroki deliberativ jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

Deliberativ demokratiyani amalga oshirishda muayyan muammolar ham mavjud. Jumladan, fuqarolarning passivligi, siyosiy madaniyatning

yetarli darajada emasligi, axborot manbalarining cheklanganligi kabi omillar bu jarayonga to’sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, ba’zan muhokamalar populizm yoki manipulyatsiyalarga olib kelishi ehtimoli ham bor. Bu holatlarda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish va muhokamalarning adolatli va ochiq o’tishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Deliberativ demokratiya mahalliy boshqaruvda “yagona to’g’ri qaror”ni topishdan ko’ra, turli manfaatlar o’rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayonda qarorlar ideal emas, balki eng maqbul variant sifatida qabul qilinadi. Ushbu yondashuv plyuralizm va bag’rikenglik tamoyillariga asoslanadi, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini inobatga olishga intiladi. Mahalliy darajada deliberativ mexanizmlarni joriy etish natijasida ijtimoiy kapital oshadi, fuqarolar o’rtasida ishonch mustahkamlanadi va jamoaviy mas’uliyat hissi shakllanadi. Bu esa o’z navbatida barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv uchun mustahkam asos yaratadi.

Deliberativ demokratiyani amaliy jihatdan joriy etish jarayonida institutsional mexanizmlar bilan bir qatorda norasmiy ijtimoiy amaliyotlar ham muhim o’rin tutadi. Jamoatchilik muhokamalari faqat rasmiy yig’ilishlar doirasida emas, balki mahalla, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va fuqarolik tashabbuslari orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda muloqot madaniyati va o’zaro hurmat asosiy omil sifatida namoyon bo’ladi. Mahalliy darajadagi deliberatsiya fuqarolarni siyosiy jarayonlarga yaqinlashtiradi, ularni passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. Mahalliy vakillik hokimiyati faoliyatida deliberativ yondashuvni kuchaytirish uchun jamoatchilik kengashlari institutini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kengashlar mahalliy qarorlar qabul qilish jarayonida maslahatchi organ sifatida ishtirok etib, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi. Ularning faoliyati shaffof va ochiq bo’lishi, qabul qilinayotgan qarorlar yuzasidan aholi fikrini o’rganishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Jamoatchilik kengashlari orqali aholi va hokimiyat o’rtasidagi muloqot institutsionallashadi va tizimli xarakter kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti deliberativ demokratiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Elektron hukumat tizimlari, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarning fikr bildirish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, onlayn so’rovlar, elektron petitsiyalar va virtual muhokamalar orqali aholi turli masalalar yuzasidan o’z munosabatini bildirishi mumkin. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini yanada inklyuziv va dinamik qiladi. Biroq raqamli deliberatsiyaning samaradorligi axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik va internetga kirish imkoniyatlari bilan bevosita bog’liq. Mahalliy boshqaruvda deliberativ mexanizmlarning samarali ishlashi uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish zarur. Qonunchilikda jamoatchilik muhokamalarini o’tkazish tartibi, fuqarolarning ishtirok etish huquqi va davlat organlarining hisobdorligi aniq belgilab qo’yilishi kerak. Bu esa deliberativ jarayonlarning formal emas, balki real ta’sirga ega bo’lishini ta’minlaydi. Qonunchilikda belgilangan normalar amaliyotda samarali qo’llanilishi uchun esa institutsional nazorat va monitoring mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

Deliberativ demokratiyaning amaliy namunasi sifatida jamoatchilik eshituvlari institutini ko'rsatish mumkin. Bunday eshituvlar orqali aholi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildirish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, shaharsozlik loyihalari, ekologik muammolar yoki infratuzilmani rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkaziladigan eshituvlar fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlaydi. Bu jarayonda turli manfaatlar to'qnashuvi mumkin, ammo aynan shu muhokama orqali muvozanatli qarorlar shakllanadi. Ijtimoiy adolat tamoyili deliberativ demokratiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Barcha fuqarolarning teng ishtirok etish imkoniyati ta'minlanmasa, deliberativ jarayonlar o'z mohiyatini yo'qotadi. Shuning uchun kam ta'minlangan aholi qatlamlari, nogironligi bo'lgan shaxslar, yoshlar va ayollar ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Inklyuzivlik deliberativ demokratiyaning samaradorligini belgilaydigan asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Mahalliy vakillik hokimiyatini transformatsiya qilish jarayonida deliberativ yondashuv jamoaviy identichlikni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Fuqarolar umumiy muammolarni birgalikda muhokama qilish orqali o'zaro bog'liqlikni his etadi va jamoaviy mas'uliyatni anglay boshlaydi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Deliberativ muhitda shakllangan qarorlar aholi tomonidan ko'proq qabul qilinadi va ularni amalga oshirish jarayonida qarshilik kamayadi. Deliberativ demokratiyaning yana bir muhim jihati – bu ekspert bilimlari va jamoatchilik fikri o'rtasidagi o'zaro aloqadir. Qaror qabul qilish jarayonida mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan ilmiy va texnik ma'lumotlar aholi tomonidan muhokama qilinadi va baholanadi. Bu esa qarorlarning sifatini oshiradi. Biroq ekspertlar va oddiy fuqarolar o'rtasidagi axborot asimmetriyasi muammosi mavjud bo'lib, uni bartaraf etish uchun ma'lumotlarni sodda va tushunarli shaklda taqdim etish talab etiladi. Mahalliy boshqaruv tizimida deliberativ demokratiyani joriy etish uzoq muddatli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda institutsional islohotlar, madaniy o'zgarishlar va ta'lim tizimini takomillashtirish o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi kerak. Faqat shu holdagina deliberativ mexanizmlar samarali ishlab, mahalliy vakillik hokimiyatining haqiqiy transformatsiyasiga erishish mumkin bo'ladi.

Deliberativ demokratiyani chuqurroq anglash uchun uning ichki strukturasi va funksional elementlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu tizimda muloqot, argumentatsiya va konsensusga erishish jarayonlari markaziy o'rin tutadi. Muloqot faqat axborot almashinuvi emas, balki ishtirokchilar o'rtasida o'zaro tushunish va ishonchni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Argumentatsiya esa har bir pozitsiyaning asoslanganligini ta'minlaydi, sub'ektiv qarashlarni ob'ektiv dalillar bilan mustahkamlashni talab etadi. Konsensus esa ushbu jarayonlarning natijasi sifatida yuzaga keladigan umumiy qaror shaklidir. Mahalliy vakillik hokimiyati doirasida deliberativ jarayonlarning samaradorligi ko'p jihatdan institutsional ishonch darajasiga bog'liq. Agar aholi davlat organlariga ishonmasa, ularning taklif va fikrlari inobatga olinishiga shubha qilsa, deliberatsiya jarayonlari formal tus olishi mumkin. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari o'z faoliyatida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga qat'iy amal qilishi lozim. Har bir qabul qilingan qaror yuzasidan aholiga tushuntirish berish, muhokamalar

natijalarini e’lon qilish va fuqarolarning fikrlarini qanday inobatga olinganini ko’rsatish ishonchni mustahkamlaydi.

Deliberativ demokratiyada vaqt omili ham muhim ahamiyatga ega. Muhokama jarayonlari ko’p vaqt talab qiladi, bu esa ayrim holatlarda tezkor qaror qabul qilish zarurati bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Shu sababli amaliyotda deliberativ va instrumental yondashuvlarni uyg’unlashtirish zarur bo’ladi. Ya’ni, strategik ahamiyatga ega masalalarda keng jamoatchilik muhokamalari o’tkazilishi, tezkor qaror talab etiladigan holatlarda esa vakolatli organlar tomonidan operativ qarorlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Mahalliy darajada deliberativ demokratiyani amalga oshirishda “mikro-deliberatsiya” va “makro-deliberatsiya” tushunchalarini farqlash ham ahamiyatlidir. Mikro-deliberatsiya kichik guruhlar doirasida o’tkaziladigan muhokamalarni anglatadi. Masalan, mahalla yig’ini yoki fuqarolik tashabbus guruhlari muhokamalari. Makro-deliberatsiya esa keng jamoatchilikni qamrab olgan muhokamalar bo’lib, ommaviy axborot vositalari, internet platformalari orqali amalga oshiriladi. Ikkala daraja o’zaro bog’liq bo’lib, bir-birini to’ldiradi.

Deliberativ jarayonlarda liderlik fenomeni ham o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Muhokamalarni tashkil etuvchi va boshqaruvchi shaxslar (moderatorlar) neytral bo’lishi, barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyat yaratishi kerak. Agar muhokamalar bir tomonlama yo’naltirilsa yoki ayrim ishtirokchilarning fikrlari ustun qo’yilsa, deliberatsiyaning asosiy tamoyillari buziladi. Shu bois, moderatsiya madaniyatini shakllantirish va mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mahalliy vakillik hokimiyatini transformatsiya qilish jarayonida deliberativ demokratiya faqat qaror qabul qilish mexanizmi sifatida emas, balki ijtimoiy integratsiya vositasi sifatida ham namoyon bo’ladi. Turli ijtimoiy guruhlar o’rtasidagi muloqot orqali qarama-qarshiliklar yumshaydi, o’zaro tushunish kuchayadi. Bu esa ijtimoiy konfliktlarning oldini olish va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Deliberativ demokratiyani amalga oshirishda ta’lim tizimining o’rni alohida ta’kidlanadi. Fuqarolarni erkin fikrlash, mulohaza yuritish va o’z pozitsiyasini asoslashga o’rgatish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri bo’lishi kerak. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida debatlar, munozaralar va interaktiv ta’lim usullarini keng joriy etish orqali deliberativ madaniyatni shakllantirish mumkin. Bu esa kelajakda fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlaydi. Iqtisodiy omillar ham deliberativ demokratiya samaradorligiga ta’sir ko’rsatadi.

Iqtisodiy jihatdan barqaror jamiyatlarda fuqarolarning siyosiy faolligi yuqoriroq bo’ladi, chunki ularning asosiy ehtiyojlari qondirilgan bo’ladi. Aksincha, iqtisodiy muammolar ustuvor bo’lgan sharoitda fuqarolarning deliberativ jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlari cheklanishi mumkin. Shu sababli, mahalliy boshqaruvda iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash deliberativ demokratiyani rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. Deliberativ demokratiya zamonaviy demokratik boshqaruvning muhim modeli bo’lib, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning mazmunli va asoslangan ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu demokratiya shaklining samaradorligi erkin fikr almashish, o‘zaro hurmat, dalillarga asoslangan muhokama va umumiy manfaatlarga yo‘naltirilgan konsensus madaniyatining shakllanganligiga bog‘liq.

Deliberativ mexanizmlarning jamoatchilik eshituvlari, maslahat kengashlari, ishtirokchi byudjetlashtirish va raqamli platformalar orqali institutsionallashtirilishi davlat boshqaruvining ochiqligi va samaradorligini oshiradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tizimining faol ishtiroki deliberativ demokratiya madaniyatini jamiyatda qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida deliberativ demokratiya tamoyillarini keng joriy etish davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash hamda demokratik islohotlarning barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. 7-tom. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.408.
2. Mirziyoev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B.416.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.440.
4. Habermas, J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1996. – 676 p.
5. Dryzek, J. S. Deliberative Democracy and Beyond: Liberals, Critics, Contestations. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 202 p.
6. Fishkin, J. S. When the People Speak: Deliberative Democracy and Public Consultation. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 256 p.
7. Cohen, J. Deliberative Democracy and Democratic Legitimacy. // The Good Polity: Normative Analysis of the State / edited by A. Hamlin, B. Pettit. – Oxford: Blackwell, 1989. – Pp. 17-34 (Umumiy kitob: 212 p.).
8. Gutmann, A., Thompson, D. Why Deliberating Democracy? – Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 2004. – 226 p.